

## INGLIZ TILIDAGI O‘TGAN ZAMON FE’L SHAKLLARINING POLIFUNKSIONALLIGI

**Ganiyeva Dildoraxon Azizovna**

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Farg‘ona davlat universiteti

**Annotatsiya.** Maqolada fe’lning grammatik kategoriyalari, bu kategoriyalar haqidagi qarashlar, fe’l zamonlari, ingliz tilidagi o‘tgan zamon fe’llari, ularning turlicha ko‘rsatkichlari va uning nutqda namoyon bo‘lishi haqida ma’lumot beriladi.

**Kalit so‘zlar:** fe’l, grammatik kategoriya, nisbat kategoriyasi, tasdiq-inkor kategoriyasi, zamon kategoriyasi, o‘tgan zamon fe’llari, polifunksionallik, ikkilamchi funksiya.

**Аннотация.** В статье приведены сведения о грамматических категориях глаголов, мнениях об этих категориях, временах глаголов, глаголах прошедшего времени в английском языке, их различных показателях и их проявлении в речи.

**Ключевые слова:** глагол, грамматическая категория, категория отношения, категория утверждения-отрицания, категория времени, глаголы прошедшего времени, полифункциональность, вторичная функция.

**Annotation.** The article provides information about the grammatical categories of verbs, various viewpoints about these categories, verb tenses, past tense verbs in English, their different indicators and their manifestation in the speech process.

**Key words:** verb, grammatical category, the category of voice, the category of affirmation/negation, the category of tense, past tense verbs, polyfunctionality, secondary function.

Ingliz tilida fe’lning grammatik kategoriyalariga oid juda ko‘p asarlar mavjud va, shu sababli, bu kategoriyalar haqidagi qarashlar ham turlicha. Rus tilshunosi A.Smirnitskiy ingliz tilidagi fe’llarning quyidagi grammatik kategoriyalari haqida ma’lumot beradi: 1) nisbat kategoriyasi; 2) vaqtga daxldorlik kategoriyasi (категория временной отнесенности); 3) vid kategoriyasi; 4) zamon kategoriyasi; 5) mayl kategoriyasi; 6) shaxs kategoriyasi; 7) son kategoriyasi. Shuningdek, u fe’lga xos yana boshqa bir qator kategoriyalar ham mavjudligi haqida so‘z yuritib, ularni savol berish kategoriyasi (категория заявления вопроса), tasdiq-inkor kategoriyasi (категория утверждения-отрицания), ekspressivlik kategoriyasi (категория экспрессивности) sifatida nomlaydi [1,91].

Vaqtga daxldorlik kategoriyasi deganda A.Smirnitskiy fe’llarning tugallangan yoki tugallanmagan harakatni ifodalashga qaratilgan perfekt va noperfekt shakllarini tadqiq qiladi.

Tilshunos olim G.Voronsova o‘zining ingliz tili nazariy grammatikasi bo‘yicha kitobida fe’l so‘z turkumiga xos grammatik kategoriyalar sirasiga son, shaxs, zamon, vid, nisbat va mayl kategoriyalarini kiritadi [2].

F.Polmer ingliz tilidagi fe'l so'z turkumiga bag'ishlangan monografiyasida bu turkumga xos grammatik kategoriyalarni birlamchi yordamchi fe'llarga xos deb hisoblaydi. Kitobning uchinchi bobi boshlanishida u quyidagicha yozadi: "Ushbu va keyingi ikkita boblar birlamchi yordamchi fe'llar va birlamchi paradigmalar bilan assotsiyalanuvchi kategoriyalar bilan bog'langandir. Zamon va faza shu bobda ko'rib chiqiladi, aspekt kategoriyasi haqida to'rtinchi bobda, nisbat kategoriyasi to'g'risida esa beshinchi bobda fikr yuritiladi" [3,32]. Faza (phase) kategoriyasi deganda olim ingliz tilidagi fe'llarga xos perfekt/perfekt oppozitsiyasini nazarda tutadi.

R.Deklerk o'zining fe'l zamonlariga bag'ishlangan monografiyasida quyidagicha yozadi: "Finit (finite) atamasi "cheklangan" degan ma'noni anglatadi va zamon, shuningdek, mayl, shaxs-son kabi boshqa grammatik kategoriyalar bilan merkerlanadi. Ya'ni bu belgilar muayyan shaklning ishlatilish imkoniyatlarini cheklaydi. Masalan: works (zamon, mayl, shaxs va sonda markerlangan: hozirgi zamon, aniqlik mayli, uchinchi shaxs, birlik) drank (faqat zamon va maylda markerlangan: o'tgan zamon, aniqlik mayli) (shaxs va sonda markerlanmagan)" [4,15].

Demak, bunda u fe'llarning zamon, mayl, shaxs-son grammatik kategoriyalari haqida so'z yuritadi. Biroq xuddi shu monografiyaning boshqa o'rnida: "Ma'noni grammatikalizatsiyalovchi fe'lli birikmalarning to'rtta tizimi mavjud, lekin ularning faqat uchtasi zamon kategoriyasi muhokamasi uchun muvofiqligini isbotlaydi, ya'ni zamonning o'zi, grammatik aspekt va mayl/modallik (zamonga mos bo'lmagan kategoriya bu nisbat kategoriyasidir)" [4,23], degan fikrni ilgari suradi. Bundan anglashiladiki, R.Deklerk shaxs-son grammatik kategoriyasini ma'no ifodalovchi grammatik kategoriya deb hisoblamaydi.

Fe'l so'z turkumiga xos grammatik kategoriyalardan biri zamon kategoriyasidir. Aytish mumkinki, biror xorijiy tilni o'rganishda fe'l zamonlari mavzusi eng keng yoritiladigan qismlardan hisoblanadi. Buning asosiy sababi o'rganilayotgan tilda biror fikrni to'g'ri ifodalashda turli vaqtda sodir bo'lgan voqealarni ko'rsatib berish uchun fe'l zamonining mos shakli qo'llanilishi muhim ekanligi bilan izohlanadi.

Zamon grammatik kategoriyasi fe'l bilan ifodalangan harakat voqelangan vaqtni ko'rsatish uchun ishlatiladigan grammatik shakllar yig'indisidir.

Fe'lning o'tgan zamon shakli ingliz tilida -ed, was/were V+ing kabi formantlar, shuningdek, tilning morfologik tabiatidan kelib chiqib, noto'g'ri fe'llarning II shakli yordamida yasaladi. Aksar hollarda har ikki tilda ham bu ko'rsatkichlar o'tgan zamonning turli ma'nolarini ifodalash jarayonida bir qator o'zgarishlarga uchrashi kuzatiladi.

Ingliz tilida fe'lining o'tgan zamon shakllari polifunksional xarakterga ega bo'lgan ko'rsatkichlardan sanaladi. O'tgan zamonning davomiy bo'lmagan shakli to'g'ri fe'llar o'zagiga -ed qo'shimchasini qo'shish bilan va noto'g'ri fe'llarda ularning ikkinchi shakli orqali hosil qilinadi. Quyidagi gapda davomiy bo'lmagan o'tgan zamon shakli o'zining birlamchi funksiyasida qo'llanilyapti: I had a country walk on Thursday and came home in a dreadful mess (A.C. Doyle, A Scandal in Bohemia).

When so'zi bilan hosil qilingan so'roq gaplarda hozirgi tugallangan zamon fe'li o'rnida ishlatilishi mazkur fe'l shaklining ikkilamchi funksiyalaridan biridir: When did you first meet Miss Hatty Doran? (A.S. Doyle, The Adventure of the Noble Bachelor) Bu gapning darak shaklida esa tugallangan hozirgi zamon qo'llanadi: I have seen her house for the first time two weeks ago.

Bundan tashqari, davomiy bo'lmagan shakli o'tgan zamonning gumon mazmunini ifodalab, hozirgi zamon ko'rsatkichlarining o'rnida qo'llaniladi. Shu orqali uning yana bir funksiyasi namoyon bo'ladi: I imagine your cousin brought you down with him chiefly for the sake of having someone at his disposal (J. Austen, Pride and Prejudice).

Xuddi shunday holat kelasi zamon haqidagi gumon mazmuni uchun ham xarakterlidir: It might be dangerous. Suppose they got lost.

Tilak-istakni bildirish uchun ishlatiladigan I wish jumlasida yordamida yasaladigan gaplarda ham nodavomiy o'tgan zamon shakli hozirgi zamon fe'li o'rnida qo'llanishi bu shaklning ikkilamchi funksiyasi hisoblanadi: And I wish my collection were larger for your benefit and my own credit; but I am an idle fellow, and though I have not many, I have more than I ever looked into (Jane Austen, Pride and Prejudice).

Mazkur shakl shart ergash gapli qo'shma gaplarda ergashgan gap tarkibida ham hozirgi vaqtga tegishli harakatni ifodalash vazifasida keladi: "If this man was alive," he said, pointing to the leaf, "we'd have no talk of an address of welcome" (J. Joyce, Dubliners).

O'tgan zamonning davomiy bo'lmagan shakli xushmuomalalikni ifodalovchi konstruksiyalarda ham hozirgi zamondagi fe'l o'rnida ishlatilishi bilan o'zining yana bir funksiyasini voqelantiradi: I just hoped to find you reasonable; but, depend upon it, I will carry my point (J. Austen, Pride and Prejudice).

Shuningdek, -yotgan edi, -yotib edi formantlarining ham funksiyalari yuqoridagi formantlar bilan deyarli bir xil bo'lib, birinchi funksiyasi, ya'ni harakatning o'tgan zamondagi ma'lum bir vaqt davomida bajarilishini ifodalashi jihatidan ulardan farq qiladi: Nizomjon to'nini apil-tapil kiyib sexga yugurdi. Tungi smena tanaffusga chiqqan, hamma bir-birini yangi yil bilan tabriklayotgan edi (S. Ahmad, Ufq).

O'tgan zamonning yana bir shakli be fe'lining o'tgan zamondagi shaxs-sondagi mos shakli va fe'ning -ing qo'shimchali shakli bilan hosil qilinadi (was/were V+ing) va davomiy shakl deb nomlanadi. Bu shaklning birlamchi funksiyasi o'tgan zamonda ma'lum vaqt oraliq'ida sodir bo'lgan ish-harakatni ifodalashdir: The children were doing their homework when I got home.

Ba'zida bu shakl nodavomiy o'tgan zamon ma'nosida qayta-qayta sodir bo'lgan ish-harakatni bildirish uchun qo'llanadi: I was practicing every day, three times a day.

O'tgan zamonning davomiy shakli ham hozirgi zamon fe'li o'rnida ishlatilib, o'zining yana bir funksiyasini reallashtiradi: Imagine you were going home. Whom did you go with?

Quyidagi gapda esa mazkur shakl kelgusida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan harakatni bildiriyapti: What if she was playing the piano? Who would come to the party then?

Shuningdek, bu shakldagi o'tgan zamon fe'li ham tilak-istakni bildiruvchi gaplarda hozirgi zamon fe'li o'rnida qo'llanishi bu shaklning ikkilamchi funksiyasidir: I wish they were speaking about the issue at this moment.

Davomiy o'tgan zamon shakli shart ergash gapli qo'shma gaplarda ergashgan gap tarkibida ham hozirgi vaqtga taalluqli harakatni ifodalash vazifasida keladi: If David was playing, they would probably win.

Mazkur shakldan ham nodavomiy o'tgan zamon shakli kabi hozirgi vaqtga ishora qiluvchi xushmuomalalikni bildiruvchi konstruksiyalarda ishlatilishi uning yana bir funksiyasi hisoblanadi: Excuse me, I was wondering if this was the train for New York.

Bu o'rinda yana shuni alohida qayd etish mumkinki, o'tgan zamon ma'nolarining ifodasida o'zbek va ingliz tillarida keskin farqlar kuzatiladi. Chunki o'zbek tili fe'llaridagi har qaysi ko'rsatkich alohida ma'no ifodasiga ega bo'lsa, ingliz tilida gap doirasidagi boshqa gap bo'laklarining ta'siri orqali o'zgarishlar namoyon bo'ladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Смирницкий А. Морфология английского языка. – М.: Издательство литературы на иностранных языках, 1959.
2. Воронцова Г. Н. Очерки по грамматике янглийского языка. – М.: Издательство литературы на иностранных языках, 1960.
3. Palmer F. R. The English verb. London: Longman, 1988.
4. Declerck R. The Grammar of the English Verb Phrase. Volume 1: The Grammar of the English Tense System. Berlin: Mouton de Gruyter, 2006.

## O‘ZBEK TEATRIDA ADABIY TIL ME’YORLARI

**Xomidov Isfandiyor Kamoliddin o‘g‘li**

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

tayanch doktoranti

***Annotatsiya.** Maqolaning asosini o‘zbek teatrida adabiy til me‘yorlarining o‘rganilishi tashkil etib, sahnada qahramon tilidan yangrayotgan so‘zlarning shevadan holi, sof, aniq va tiniq, barcha uchun tushunarli ifoda etilishiga doir izlanishlarga qaratilgan. Maqolada aktyorning ijrosiga xizmat qiluvchi adabiy til me‘yorlari xususidagi muammolar va ularni bartaraf etish masalalari keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** o‘zbek teatri, til, adabiy til, adabiy til me‘yorlari, aktyor, sahna nutqi, sheva, she‘riy nutq, ritm, ohang, talaffuz, orfografiya, orfoepiya, artikulyatsiya, unli tovush, undosh tovush.*

***Аннотация.** В основу статьи положено исследование нормы литературного языка в узбекском театре. В статье представлены проблемы нормы литературного языка, обслуживающих игру актёра, и вопросы их устранения.*

***Ключевые слова:** узбекский театр, язык, литературный язык, нормы литературного языка, актёр, сценическая речь, диалект, поэтическая речь, ритм, интонация, произношение, орфография, орфоэпия, артикуляция, гласный звук, согласный звук.*

***Annotation.** The basis of the article is the study of the norms of the literary language in the Uzbek theater. The article presents the problems of literary language norms serving the actor’s performance and their elimination.*

***Key words:** uzbek theater, language, literary language, standarts of literary language, actor, stage speech, dialect, poetich speech, rhythm, tone, pronunciation, orthography, orthoepy, articulation, vowel sound, consonant sound.*

Kirish. Til insonlarning so‘zlashuv vositasi bo‘lib, har bir millatga xosdir. Uning badiiyligi avvalo yozuv orqali adabiyotda, so‘ng ijro orqali teatr sahnasida yangraydi. Sahnadan turib aytilgan so‘z omma uchun adabiy tilning eng oliy namunasi. Chunki unda qahramonning millati, xarakteri, ijtimoiy kelib chiqishi, maqsadi ifoda etiladi. Til orqali spektakl voqealari qaysi davrda, qay yurtda kechayotgani tushunilsa, nutq orqali insonlarning munosabatlari aks ettiriladi. Misol uchun, Navoiy kabi ulug‘ zotlar haqidagi spektakllarda she‘riy nutqning ustunlik qilishi dramaturglar (I.Sulton va Uyg‘un) tomonidan tilga, undagi ritmga, ohangga e‘tibor qaratilganidir. Bu bejiz emas, boisi, Navoiyning sifatlarini aks ettirish va